Vol 2/ №4
EUROPEAN YOUTH INNOVATION SOCIETY CONFERENCE
www.eyis.org.uz
2025-2026

SOLIQ TUSHUMLARI TARKIBI VA HUDUDIY NOTEKISLIK: MAHALLIY BYUDJETLAR UCHUN BARQAROR DAROMAD MANBALARINI SHAKLLANTIRISH

Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li
Guliston davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Tezisda 2012–2025-yillarda soliq tushumlari tarkibi va hududlar soliq bazasidagi notekislik tahlil qilingan. JShDS mahalliy byudjetlar uchun eng barqaror manba ekani, normativlar esa jon boshiga iqtisodiy bazaga emas, iqtisodiyot hajmiga bog‘langani ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *barqaror rivojlanish, mahalliy byudjet, soliq tushumlari, taqsimlash normativi, hududiy notekislik, norasmiy iqtisodiyot, daromad barqarorligi.*

Аннотация. *В тезисах анализируются структура налоговых поступлений за 2012–2025 годы и неравномерность налоговой базы регионов. Показано, что НДФЛ – наиболее устойчивый источник местных бюджетов, а нормативы распределения привязаны не к подушевой базе, а к размеру экономики региона.*

Ключевые слова: *устойчивое развитие, местный бюджет, налоговые поступления, норматив распределения, региональная неравномерность, неформальная экономика, устойчивость доходов.*

Abstract. *The paper examines the structure of tax revenues in 2012–2025 and the uneven regional tax base. Personal income tax proves the most stable source for local budgets, while revenue-sharing rates follow the size of a regional economy rather than its per capita base.*

Keywords: *sustainable development, local budget, tax revenues, revenue-sharing rate, regional disparity, informal economy, revenue stability.*

Kirish.

Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) ichki moliyaviy resurslarni safarbar qilish va hududlar o‘rtasidagi tengsizlikni qisqartirishni nazarda tutadi. O‘zbekistonda hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va bunda mahalliy hokimliklar mas’uliyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida belgilangan [1]. Buning uchun mahalliy byudjetga biriktirilgan soliq manbalari barqaror bo‘lishi kerak. Tezis qaysi soliq bu talabga javob berishi va hududiy notekislik taqsimotda qanday hisobga olinayotganini o‘rganadi.

Adabiyotlar sharhi.

R. Bahl va R. Bird mahalliy byudjetga biriktiriladigan manba barqaror va hudud harakatiga bog‘liq bo‘lishi kerakligini asoslagan [2]. Mahalliy adabiyotda mahalliy byudjetlar daromadlarini tartibga solish O.R. Meyliyev [3], byudjetlararo mutanosiblikda soliqlarning o‘rni A.X. Islamkulov [4], hududning daromad salohiyati X.A. Qobulov [5], mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligini oshirish istiqbollari

H.I. Inogamov [6] ishlarida o‘rganilgan. U. Pardaev va S. Maxmudov 2026-yil prognoz ko‘rsatkichlari asosida transfertlarni formula bo‘yicha taqsimlash variantlarini modellashtirgan [7]. Biroq soliq turlarining uzoq muddatli barqarorligi va hududlar iqtisodiy bazasi normativ belgilashda mezon sifatida birgalikda kam o‘rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda Ochiq byudjet portalining 2012–2025-yillar ijro ma’lumotlari [8], 2026-yil uchun Davlat byudjeti to‘g‘risidagi qonun [9], Milliy statistika qo‘mitasining hududlar bo‘yicha ma’lumotlari [10] va mahalliy byudjetlar parametrlari [11] qo‘llanildi. Tuzilmaviy o‘zgarish soliq turlarining daromadlardagi ulushi bilan o‘lchandi. Hududiy notekislik iqtisodiy bazaning lokallashuv koeffitsiyenti bilan baholandi:

$$LQ_i = (Y_i / Y) / (POP_i / POP) \quad (1)$$

bu yerda Y_i va Y hudud va respublika yalpi mahsuloti, POP_i va POP aholi soni. Koeffitsiyent birdan katta bo‘lsa, hududning iqtisodiy bazadagi ulushi aholidagi ulushidan yuqori.

Tahlil va natijalar.

Soliq tushumlari tarkibining o‘zgarishi (1-jadval) uchta natija beradi. Birinchidan, 2012–2017-yillarda tuzilma deyarli o‘zgarmagan, 2018–2020-yillarda esa keskin uzilish ro‘y bergan: yagona soliq to‘lovining bekor qilinishi bilan foyda solig‘ining ulushi 3,0 foizdan 21,6 foizga ko‘tarilgan, aksizniki 15,0 foizdan 8,8 foizga tushgan. Demak, normativlarni faqat 2020-yildan keyingi davr bo‘yicha baholash to‘g‘ri.

1-jadval

Asosiy soliqlarning davlat byudjeti daromadlaridagi ulushi, %

Yil	Foyda solig‘i	JShDS	QQS	Aksiz	Mol-mulk	Yer solig‘i
2012	4,7	10,8	28,0	14,9	3,5	2,3
2018	4,4	8,1	35,2	12,3	3,3	1,9
2019	14,6	11,3	30,1	9,2	2,1	2,1
2020	21,6	11,4	23,5	8,8	1,5	1,8
2025	20,1	11,8	21,1	6,1	2,2	2,8

Izoh: QQS – qo‘shilgan qiymat solig‘i. Manba: Ochiq byudjet portali [8] asosida muallif hisob-kitobi.

Ikkinchidan, JShDS eng barqaror manba bo‘lib chiqdi. 2012–2025-yillarda uning ulushi 8,1–12,9 foiz oralig‘ida qolgan va ikki soliq islohoti ham uni keskin siljitmagan. 2020–2025-yillarda JShDS ulushi 1,5 foiz bandi oralig‘ida, foyda solig‘iniki esa 5,7 foiz bandi oralig‘ida tebrangan, ya’ni farq 3,8 baravar. 2022-yilda foyda solig‘i absolyut ifodada ham qisqargan (38,4 dan 37,6 trln so‘mga). Foyda solig‘i bazasi tog‘-kon va metallurgiya mahsulotlari narxiga, JShDS bazasi esa mahalliy bandlik va ish haqi fondiga bog‘liq.

Uchinchidan, mahalliy byudjetlarga to‘liq biriktirilgan mol-mulk va yer solig‘ining tushumi 2020–2025-yillarda 4,4 trln so‘mdan 18,1 trln so‘mga oshgan. O‘sish asosan stavkalar indeksatsiyasi hisobiga bo‘lsa-da, biriktirilgan daromadlarning kengayishi tartibga soluvchi daromadlarga qaramlikni kamaytiradi.

Hududlar iqtisodiy bazasidagi farq katta (2-jadval): lokallashuv koeffitsiyenti Navoiy viloyatida 3,12, Surxondaryo viloyatida 0,46, ya’ni farq 6,8 baravar. Biroq JShDS va foyda solig‘i bo‘yicha normativ jon boshiga bazaga emas, iqtisodiyotning absolyut hajmiga bog‘langan. Uchta eng yirik iqtisodiyot (Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlari) uchun normativ 7, 33 va 66 foiz, qolgan o‘n bir hudud uchun esa 100 foiz. Natijada jon boshiga yalpi mahsuloti 1,9 baravar farq qiladigan Buxoro va Surxondaryo viloyatlari bir xil normativga ega.

2-jadval

Hududlarning iqtisodiy bazasi va soliq taqsimoti ko‘rsatkichlari

Hudud	Jon boshiga YaHM, 2025, ming so‘m	LQ	Norasmiy iqtisodiyot ulushi, 2025, %	JShDS normativi, 2026, %	Jon boshiga o‘z daromadi, 2026, ming so‘m
Navoiy viloyati	152 238	3,12	13,1	66	3 712
Toshkent shahri	116 747	2,39	19,1	7	4 006
Toshkent viloyati	57 480	1,18	26,5	33	2 373
Buxoro viloyati	41 399	0,85	39,5	100	2 441
Sirdaryo viloyati	38 137	0,78	33,2	100	2 413
Jizzax viloyati	34 117	0,70	41,2	100	1 882
Andijon viloyati	30 852	0,63	35,9	100	1 552
Xorazm viloyati	30 714	0,63	45,1	100	1 815
Samarqand viloyati	28 002	0,57	40,1	100	1 660
Namangan viloyati	27 021	0,55	44,1	100	1 486
Qashqadaryo viloyati	26 857	0,55	43,1	100	1 604
Farg‘ona viloyati	26 604	0,54	38,4	100	1 644
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	26 490	0,54	38,7	100	1 869
Surxondaryo viloyati	22 223	0,46	46,2	100	1 317
O‘zbekiston Respublikasi	**48 816**	**1,00**	**26,9**	×	×

Izoh: LQ (1) formula bo‘yicha respublika ko‘rsatkichiga nisbatan hisoblangan. Manba: Milliy statistika qo‘mitasi [10], O‘RQ-1105-son Qonun [9] va «Fuqarolar uchun byudjet» [11] ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

Norasmiy iqtisodiyot ulushi bu notekislikni yanada kuchaytiradi: u Navoiy viloyatida 13,1 foiz, Surxondaryo viloyatida esa 46,2 foiz. Norasmiy iqtisodiyot ulushi yuqori hududda soliq salohiyatining katta qismi haqiqiy tushumga aylanmaydi. Shu sababli bir xil 100 foizlik normativ olgan o‘n bir hudud amalda turlicha real daromad bazasiga ega. Oqibatda jon boshiga mahalliy byudjet o‘z daromadi Toshkent shahrida 4 006 ming so‘m, Surxondaryo viloyatida 1 317 ming so‘m, farq 3,0 baravar.

Xulosa va takliflar. Mahalliy byudjetlar uchun eng barqaror manba JShDS, normativlar esa jon boshiga iqtisodiy bazani va norasmiy iqtisodiyot ulushini hisobga olmaydi. Shundan kelib chiqib quyidagilar taklif etiladi.

1. «Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi yillik qonunning 12-moddasida JShDS normativini bir yilga emas, o‘rta muddatli byudjet doirasiga mos ravishda uch yilga belgilash. Bu mahalliy byudjetning eng barqaror manbasini oldindan ma’lum qiladi.

2. Foyda solig‘i bo‘yicha mahalliy byudjet ulushini joriy yil tushumi bo‘yicha emas, oxirgi uch yil tushumlarining o‘rtachasi bo‘yicha rejalashtirish. Bu xomashyo narxlari tebranishini mahalliy xarajatlarga to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘tkazmaydi.

3. Normativ belgilash mezonini oshkor qilish: yillik qonunga hududlarning jon boshiga yalpi mahsuloti va lokallashuv koeffitsiyentini ko‘rsatuvchi ilova kiritish va normativni absolyut hajmga emas, shu ko‘rsatkichlarga bog‘lash.

4. Norasmiy iqtisodiyot ulushi 40 foizdan yuqori bo‘lgan hududlarda (Surxondaryo, Xorazm, Namangan, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlari) mehnat munosabatlarini qonuniylashtirish hisobiga o‘tgan yilga nisbatan qo‘shimcha tushgan JShDSni keyingi yil transferti hisobida inobatga olmaslik. Shunda hokimliklar soliq bazasini qonuniylashtirishdan bevosita manfaatdor bo‘ladi.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlarida mahalliy byudjetlarning biriktirilgan va tartibga soluvchi daromadlarini alohida ko‘rsatish, chunki hozir ular bir satrda jamlanadi. Bu choralar BRMdagi ichki resurslarni safarbar qilish va hududiy tengsizlikni qisqartirish vazifalarini mahalliy darajada qo‘llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi PF-223-son «Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

2. Bahl R., Bird R.M. Fiscal Decentralization and Local Finance in Developing Countries: Development from Below. Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2018. 512 p.

3. Meyliyev O.R. Mahalliy byudjetlar daromadlarini tartibga solishni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2022. 73 b.

4. Islamkulov A.X. Byudjetlararo mutanosiblikni ta’minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2020. 71 b.

5. Qobulov X.A. Hudud daromad salohiyati shakllanishining metodologiyasini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2026. 245 b.

6. Inogamov H.I. O‘zbekistonda mahalliy byudjetlar moliyaviy mustaqilligini oshirish istiqbollari: iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2025. 58 b.

7. Pardaev U., Maxmudov S. Formula-based distribution of intergovernmental transfers to local budgets in Uzbekistan: a comparative simulation analysis based on 2026 forecast indicators // Social, Economic, Scientific and Technical Academic Journal. 2026. Vol. 3, No. 6. P. 5–16. DOI: 10.5281/zenodo.20706360.

8. O‘zbekiston Respublikasi Ochiq byudjet portali: davlat byudjeti daromadlari ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, 2012–2025. URL: https://openbudget.uz